

ISSN 2181-7138

# МУАЛЛИМ ХЭМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИУ



*Илимий-методикалық журнал*

---

**2023**

**2/1-сан**

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы  
Жоқаргы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалтақстан Баспа сөз хәм хабар агентлиги тәрәпинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы сууалық берилген.*

Нөкис

**2/1-сан 2023**

*март-апрель*

---

*Шөлкемлестіріушілер:*

*Қарақалтақстан Республикасы Халық билимлендириу Министрлиги,  
ӨЗПІИИ Қарақалтақстан филиалы*

**Редактор:  
А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Мақсет АЙЫМБЕТОВ	Сабит НУРЖАНОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Уролбой МИРСАНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Нуржан МАТЧАНОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ	Шукурулло МАРДОНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Умида БАХАДИРОВА	Қаххор ТУРСУНОВ
Фархад БАБАШЕВ	Нурзода ТОШЕВА
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Тажибай УТЕБАЕВ
Маманазар ДЖУМАЕВ	Аманғелди КАМАЛОВ
Асқар ДЖУМАШЕВ	Ризамат ШОДИЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Гулрухсор ЭРГАШЕВА
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Гавхар ЭЩАНОВА
Асқарбай НИЯЗОВ	

## МАЗМУНЫ

### ТИЛ ҲАМ ЭДЕБИЯТ

<b>Seytkasimov D. B.</b> Kompetencyaga bag'darlangan talim tiykarinda filolog-oqituvshi profilni jaratuv	6
<b>Курбанова Ш. А.</b> Концепт терминининг когнитив тилшуносликда ва лингвوماданиятшуносликдаги аҳамияти	13
<b>Toshxujayeva Sh., Karimova Sh.</b> Erkin A'zam asarlarida frazeologizmlar	20
<b>Masodikova Z. H.</b> Oliy ta'lim muassasalarida nemis tilini pedagogik texnologiyalar orqali o'rgatish	24
<b>Akbarova M. Sh.</b> G'ayriodatiy birikmalar badiiy matnning lingvopoetik qiymatini oshiruvchi omil sifatida	28
<b>Yigitaliyeva Sh. I.</b> "Yaxshilik" konseptining bilvosita ifodalanishi	33
<b>Закирова Д. Х.</b> Нуткий жанрлар концепцияси хусусида	38
<b>Тошхужаева Ш., Каримова Ш.</b> Эркин Аъзам асарларида киноя	43
<b>Тошхужаева Ш.</b> Эркин Аъзам асарларида парантезаларнинг лингвопоетик хусусиятлари	47
<b>Орипова К. Э.</b> Ўхшатишлар иштирокидаги бадий матнларда антонимлар маданий омил сифатида	52
<b>Ishmatova O. S.</b> Fonetik ritmika – nutqni kompleks rivojlantirish omili sifatida	57
<b>Махмудова Д. С.</b> Методы и приемы обучения русскому языку	65

### ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

<b>Хужаназарова Н. М.</b> Тарбияланувчиларда меҳнат кўникмаларини ҳосил қилиш	70
<b>Taylanova Sh.</b> Boshqaruv tizimini rivojlantirish yo'llari	73
<b>Донаев С. Х.</b> Таълим сифатини бошқаришнинг муҳим хусусиятлари	77
<b>Abdraimova B. B.</b> Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik diagnostika muammosining nazariy aspektlari	83
<b>Kultaev K. K.</b> To'yingan uglevododrodlar mavzusiga interfaol usullarning tatbig'i	92
<b>Abdullayev A. Q., Abdullayeva N. R.</b> Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematika fanini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida kreativ faoliyatini rivojlantirish	99
<b>Ibadullayeva Sh. N.</b> Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak maxsus pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning mexanizmlarini takomillashtirish	105
<b>Бабаева Х. У.</b> Педагогик таълим инновацион кластерининг афзаллиги	111
<b>Эрназарова Г. О., Калдибеков А. Б.</b> Бўлажак педагоглarning технологик компетентлик даражасини ривожлантиришнинг педагогик шарт-шароитлари	115
<b>Қурбанова М. Э.</b> Касбий-технологик вариативлик асосида ўқув жараёнида инновацион фаолиятни ташкил этиш	121
<b>Тўйчиева Г. М.</b> Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-билиш компетенциясини шакллантириш	125
<b>Janbayeva M. S.</b> Innovatsion jamiyat sharoitida zamonaviy o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojlar	130
<b>Meylieva M. S.</b> Kasb tanlashga munosabat tizimi mezonlarining tanlanishi	133
<b>Ne'matova Z. F.</b> Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasida zamonaviy o'rta bog'in kadrlarni tayyorlash tamoyillari	138
<b>Majidova G. A.</b> Umumta'lim maktablarida immersiv texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasini oshirish	142
<b>Xalilov F. V.</b> Muhandislik oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim va unda bilimlar bazasi qo'llash zaruriyati	146
<b>Ашурова С. Ю.</b> Ўқитиш тамойиллари таълим жараёнида дидактик воситалар ва материаллардан фойдаланишнинг асоси сифатида	152
<b>Muslimov Sh. N.</b> Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy-grafik kompetentligini rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning roli	157

<b>Sharipov A. A.</b> Professional talim muassasalari oquvchilarining zamonaviy pedagogik texnologiyalar vositasida amaliyotga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish .....	163
<b>Абдалова С. Р.</b> Дарснинг ўқув жараёнидаги ўрнини ўрганиш ҳамда муаммоли ўқитиш технологияси нуқтаи-назаридан таҳлил қилиш .....	168
<b>Мусурманов Р., Султанова Д. А.</b> Академик Қори Ниёзий педагогик фаолиятини ўрганиш замон талаби .....	174
<b>Рахманова М. Қ.</b> Talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari .....	178
<b>Кадинова Х. А.</b> Замонавий таълим технологиялари ёрдамида миллий дунёкарашни ривожлантириш механизлари .....	183
<b>Парпиева М. М.</b> Технологик таълим ўқитувчисининг аутопедагогик компетентлигини ривожлантириш муаммосини ўрганишнинг илмий-амалий асослари .....	188
<b>Tursunbayeva Yu. R.</b> Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonini boshqarish texnologiyasi pedagogik mexanizmlari .....	194
<b>Мусурмонов Р., Суяров А. М.</b> Ёшларнинг шарқона имиджи ва муомала одобини шакллантириш хусусида .....	200
<b>Жумаева Ю. Р.</b> Бўлажак ўқитувчиларни форсайт технологияси асосида касбий фаолиятга тайёрлаш .....	206
<b>Кабирова З. М.</b> Аралаш таълим технологияларининг аҳамияти .....	211
<b>Xasanov F. Z.</b> Bo'lajak matematika o'qituvshilarini metodik tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	215
<b>Ortiqova N. A.</b> O'qituvchining pedagogik faoliyatidagi psixologik to'siqlar va ularni bartaraf etish metodlari .....	220
<b>Ortiqova N. A.</b> Tarbiya maqsadini ishlab chiqishning pedagogik xususiyatlari .....	230
<b>Axmadaliyev B. S.</b> Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirishning innovasion usullari .....	235
<b>G'aniyeva D. M.</b> Методология анализа взаимной интеграции форм социального сознания на основе научных подходов .....	239
<b>Файзилова У. Ю.</b> Особенности внедрения инклюзивного образования в Республике Узбекистан .....	248
<b>Махмудова Д. С.</b> В педагогической деятельности учителя психологические барьеры и методы их преодоления .....	257
<b>Кочкаров А. А.</b> Диагностика индивидуально-типологических свойств курсантов образовательных учреждений МВД Республики Узбекистан .....	264
<b>Musurmankulova M. N.</b> The new educational system of uzbekistan and new conditions for teachers .....	269

## МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИК ТИЙКАРЛАРИ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

<b>Файзилова У. Ю.</b> Международная практика инклюзивного образования История становления инклюзивного образования .....	272
---	-----

## ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

<b>Mirsanov U. M., Isroilov N. S.</b> Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga dasturlash dasturlashni o'rgatishda xorijiy davlatlarning tajribalaridan foydalanish .....	280
<b>Esanbayev B. I.</b> Talabalarning fraktal grafikaga oid kompetentligini rivojlantirish muammolari .....	286
<b>Абидова З. К.</b> Профессионал таълим муассасалари ахборот муҳитини шакллантиришда электрон таълим ресурслари янги авлоддан фойдаланиш .....	292
<b>Xo'janazarov Z. R.</b> Ta'lim sifatini ta'minlashda SMART-texnologiyalaridan foydalanish .....	298
<b>Yusufxodjayeva F. M.</b> O'quvchilarida gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi darslarida kasanachilik ko'nikmalarini shakllantirish .....	305
<b>Ibragimova M. G.</b> Texnologiya ta'limi darslarida o'quvchilarni ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish orqali kasb- hunarga yo'naltirish .....	310
<b>Isaqova Z. R., Tursunov J. E.</b> To'qimachilik korxonalarida maro turlarini kengaytirish .....	315

## БАСЛАҒЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

<b>Shodiyev R. D., Shonazarov U. Sh.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish	319
<b>Taylanova Sh.</b> Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish	326
<b>Rabbimova M. M.</b> Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarida amaliy kompetentlikni rivojlantirish	330
<b>Эрханова Н. А.</b> “Тил ва нутқ” марказида инновацион-методик фаолият олиб бориш самарадорлиги	333
<b>Жовмирзаева Н. Қ.</b> Maktabgacha таълим муассасалари тарбиячиларининг эмоционал компетенциясини шакллантириш механизmlари	339
<b>Karimova Sh. B.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarning vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishda axloqiy kotigoriyalarning ahamiyati tahlili	343
<b>Halimova M. A.</b> Tabiiy fanlar (SCIENCE) o'quv predmeti – o'quvchilar ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish aspektlari sifatida	347
<b>Mo'minova G. B., Sirojiddinova S.</b> Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish asoslari (O'zbekiston misolida)	352
<b>Mo'minova G. B., Muhammadaliyeva D.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning nutqini o'stirish metodlarining ilmiy-nazariy tahlili (turli yosh bosqichlari misolida)	356
<b>Dehqonova M. G'.</b> Ko'zi ojiz bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishning o'ziga xos xususiyatlari	360
<b>Azizova Z. b., Aliyeva S.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy bilish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyalari	366
<b>Azizova Z. B., Mavlonova M.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarning kreativligini rivojlantirishning ahamiyati	370
<b>Abdubannopova M. A.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachibing inklyuzif kompetensiyasini rivojlantirish	374
<b>G'aniyeva D. M., Ismoilova M.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ong shakllanishida axloqiy normalarning ahamiyati	379
<b>Usmonova M. S.</b> Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash muammolari	388
<b>Yoqubjonova G. X.</b> Boshlang'ich sinflarda o'qish va tabiatshunoslik fanlarini o'qitishda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish	393
<b>Жураева М. А.</b> Развитие коммуникативно-речевой компетенции будущих учителей начальных классов	399
<b>Asiljonova Sh.</b> Preschoolers Benefit from Learning a Foreign Language	404

## ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲАМ СПОРТ

<b>Қамбаров О. Ф.</b> Кичик синф ўқувчиларини жисмоний тайёргарлигини баҳолашнинг методологик асослари	411
<b>Муродов К. Н.</b> Спорт курашида махсус ускуналар ёрдамида мушак кучини даражасини аниқлаш ва ривожлантириш йўллари	418
<b>Исмагилов Д. К.</b> Интегральные специальные средства подготовки футболистов на этапах совершенствования спортивного мастерства и высшего спортивного мастерства	426
<b>Миршарипов А. Г.</b> Мини-футбол как средство физического воспитания и физической подготовленности	429
<b>Эрдонов О. Л., Махмудов В. В.</b> Мини-футбол как вид спорта и средства физического воспитания студенческой молодёжи	433
<b>Эрдонов О. Л.</b> Актуальность физического воспитания среди студенческой молодежи на основе применения информационных технологий	438
<b>Mirzayev A. M.</b> The task of physical education and the technique of belt wrestling in the training of cadets	444



## OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITISH JARAYONINI BOSHQARISH TEXNOLOGIYASI PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

*Tursunbayeva Yu. R.*

*Pedagogika fakulteti "Maktab menejmenti" kafedrasi o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** vakolatli ta'lim, taraqqiyot strategiyasi, zamonaviy pedagog, boshqarish texnologiyasi, pedagogik mexanizmlar.

**Ключевые слова:** компетентное образование, стратегия развития, современный педагог, технология управления, педагогические механизмы.

**Key words:** competent education, development strategy, modern pedagogue, management technology, pedagogical mechanisms.

O'qitish va tarbiyalash jarayoni turli tarixiy davrlarda vaqt hamda ijtimoiy munosabatlar darajasiga mos tarzda turli shakl o'zgarishlariga uchragan, biroq ta'limni takomillashtirish yo'llari haqidagi masala hamma vaqt dolzarb bo'lib qolavergan. Bugungi kunda kadrlar tayyorlash masalasiga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor berilayotgani oliy ta'lim sohasidagi islohatlarning yangi sifat bosqichiga ko'tarilishidan dalolat bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek: «Yana bir muammoni hal etish ham o'ta muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur».

Shu bilan birga hozirgi zamon oliy ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalardan biri o'quv jarayonini boshqarish orqali ta'lim sifatini oshirish ekanligi e'tirof etildi. Ta'lim sifati ilmiy tadqiqot obyekti sifatida dunyoning rivojlangan davlatlarida keng o'rganilgan va joriy etilgan. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz ta'lim muassasalarida o'quv jarayonida ta'lim sifatiga e'tibor susaymagan bo'lsa-da, tizim sifatida endi shakllanmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda OTMLar faoliyatini baholashning aniq, barqaror va istiqbolli tartib-qoidalari tizimi yaratilmoqda. Yuksak zamonaviy rivojlanish yo'liga o'tish miqyosida muhim ahamiyatga ega eng muhim omil faqat texnik g'oyalarni

ishlab chiqarish emas, balki ichki va tashqi bozorlarga xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek, uni amalga oshirish uchun ilmiy va texnik soha va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni yuqori malakali mutaxassislarini ilg'or ta'lim muassasalarida o'qitishning lozimligidir.

Mamlakatimizni 2017 - 2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi buyicha o'tgan 5 yil mobaynida davlat va jamiyat faoliyatining barcha sohalarida tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

Shu asnoda keng jamoatchilik muhokamasi natijasida "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" yetti ustuvor yo'nalishdan iborat 2022 – 2026 – yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqildi.

Taraqqiyot strategiyasining 4 – yo'nalishi "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, Inson kapitalini rivojlantirish" ga qaratilgan bo'lib bu yo'nalishning quyidagi maqsadlari Oliy ta'lim tizimiga tegishlidir:

- Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish
- 2026 yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va THE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash
- 100 ming o'rinli talabalar yotoqxonalarini barpo etish
- 2026 yilgacha nodavlat oliy ta'lim muassasalar sonini 50 taga yetkazish
- "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali erkin va ijodiy fikrlidigan yoshlarni xorijiy oliygohlarga yuborish ko'lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini aniq, texnik fanlar hamda IT sohalariga o'qitish

O'quv reja, fan dasturlari, dars soatlari, professor-o'qituvchilar yuklamasining o'zgarishi hamda yangi fanlarning kiritilishi o'qitish texnologiyasini tashkil qilishning yangi shakllarini qo'llashni taqozo qiladi. Bu holatda pedagogik bilimning ahamiyati ortadi. Shu boisdan ham, o'qituvchilar va tarbiyachilarni chet tillarini bilish va zamonaviy texnologiyalarni o'rganish va qo'llashga bo'lgan munosabatini o'zgartirish zarurdir.

Bugungi kun o'qituvchilari ta'lim jarayonida qo'llashlari mumkin bo'lgan zamonaviy innovatsion uslublar, axborotlar bazasiga yetarlicha egadirlar. Buning uchun zamonaviy kompyuter va boshqa axborot kommunikatsion texnologiyalarini, elektron darsliklar, videomateriallar, fotomateriallarni, internetdan yetarlicha foydalana olishga o'zini o'rgatishi zarurdir. Bularning hammasi pedagogik izlanuvchilik faoliyatini ta'minlaydi.

Professor-o'qituvchilar turli xil zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashi mumkin. Masalan, faol o'qitishning imitasion usullari, loyihalar usuli, o'qitishda hamkorlik, kreativ o'qitish, ma'ruza press-konferensiya, muammoli va o'yinli texnologiya, jamoaviy va guruhli faoliyat texnologiyasi, turli holatlarni tahlil qilish usuli, ma'ruza suhbat, vizual ma'ruza va boshqalar shular jumlasidandir. Ta'lim jarayonining «zamonaviy» texnologiyalari talabani nafaqat ijtimoiy - kasbiy bilimlar bilan ta'minlaydi, balki unda kasbiga xos sifatlar shakllanishiga ham yordam beradi. Ta'lim jarayonining texnologiyasi quyidagi asosiy maqsadlarni hal qiladi:

- davlat manfaatlariga mos holda, talabani bo'lajak mutaxassis sifatida tayyorlaydi;
- talabani jamiyat a'zosi sifatida shakllantirib, ijtimoiy tajriba, qadriyatlarni, meyorlarni anglagan jamiyat manfaatlarini bilan hamohang faoliyat ko'rsatuvchi kadrni tayyorlaydi;
- talabani faol, tashabbuskor, mantiqan fikrlovchi individ sifatida rivojlantiradi.

Shuni takidlab o'tish lozimki, professor-o'qituvchilarning zamonaviy faoliyatga tayyorligining muhim ijtimoiy va kasbiy sifatleri, nafaqat ta'lim muassasasidagi iqtisodiy va moliyaviy vaziyatga, balki bevosita bu sifatlarning talab etilganligi bilan ham bog'liqdir. Zamonaviy oliy ta'limning asosiy real talablaridan biri o'qituvchilarning kasbiy sifatleri va yetarlicha malakaga ega bo'lishidir. Shu jihatdan kadrlar masalasi hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Chunki «Kadrlar masalasini hal etmas ekanmiz, sa'y-harakatlarimiz kutilgan natijalarni bermaydi, xayotimiz, ma'naviyatimiz esa o'zgarishi qiyin bo'ladi»

Oliy ta'lim muassasalari fakultetlarida professor-o'qituvchilar yosh o'qituvchilarga ta'lim berish sirlarini o'rgatishi, o'qitish uslublarini qo'llash bo'yicha maslahatlar berishi, interaktiv o'qitish usullarini ochiq darslarda namoyon qilishi zarur.

Natijada o'qituvchilar quyidagilarga erishadilar:

- o'z faoliyatlarini baholashning yangi usullarini topish, kasbga bo'lgan qarashni o'zgartirish;
- pedagogik va ijodiy qobiliyatlarini transformasiya qilish ya'ni boshqalarga o'rgatish;
- o'qituvchilarda kasbiy funksiyalari to'g'risidagi tor tushunchani kengaytirishga olib keladi.

O'quv jarayonini boshqarish sifati ta'lim muassasasining o'quv tarbiyaviy faoliyatining turli qirralarini tavsiflovchi kompleks ko'rsatkichlar orqali



baholanadi. Ushbu ko'rsatkichlarga ta'lim oluvchilar kompetentligining rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim mazmuni, o'qitish shakli va uslublari, moddiy-texnik baza, xodimlar tarkibi kabilar kiradi.

Oliy ta'lim muassasasida o'quv jarayonini boshqarish birinchi galda uni tashkil etuvchi unsurlarga bog'liq bo'lib, asosan quyidagi sifat ko'rsatkichlarni kompleks o'rganish asosida shakllanadi:

- oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirayotgan abituriyentlar va talabalar ;
- ta'lim dasturlari ;
- ilmiy-pedagogik kadrlar;
- o'quv jarayoni, pedagogik faoliyat;
- moddiy-texnik baza;
- axborot-kommunikatsiya muhiti;
- ilmiy tadqiqot ishlari;
- ta'lim jarayonini boshqarish;
- rahbariyatning innovatsion faolligi;
- innovatsion jarayonlarning tatbiq etilishi;
- bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligi

Shu o'rinda o'qitish jarayoninig ayrim texnologiyalariga ham etibor berishimiz lozim Yorib o'tishlar texnologiyasi va V. Erxard maktabi. Bu texnologiya menejerlarni qayta tayyorlash uqishlaridan iborat bo'lib, uning maqsadi har bir odamda mavjud bo'lgan (lekin kundalik bir xildagi hayot va ish bilan bug'ib qo'yilgan) qobiliyatlari va intilishlarini an'anaviy muammolarni yangi muammo sifatida yechish uchun kundalik izlanishlarga aynan uyg'otish hisoblanadi. Bu kurslar tinglovchining fikrlashi va xulqidagi shaxsiy stereotiplarni bartaraf qilish, o'z imkoniyatlarini va eskirgan muammolarni yangicha yechish yo'llarini ko'ra olishlarini faollashtirish va o'zgartirish bo'yicha ishlab chiqilgan ko'p sonli mashg'ulotlardan iborat.

Hamkorlik pedagogikasi. An'anaviy ta'limda o'qituvchi pedagogik jarayonning subyekti, o'quvchi esa obyekt deb qara ladi. Hamkorlik pedagogikasida esa o'quvchi o'z o'quv faoliyatining subyekti sifatida qaraladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchi pedagogik jarayonning subyektlari sifatida tenglashib, hamkorlik pedagogikasi jarayoni hosil buladi. Ular o'zaro hamkor, hamdust, hamijodkor, hamishtirokchi, hamdard, ham boshkaruvchi bo'ladilar.

Hamkorlik munosabatlari o'qituvchilar orasida, ma'muriyat bilan, o'quvchilar va o'qituvchilar tashkilotlari bilan, rahbarlar, ota-onalar, jamoatchilik orasida ham o'rnatiladi.

Hamkorlik pedagogikasi o'quvchining ta'lim-tarbiya olish motivlarini rivojlantirib borish orkali hamda o'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish



tamoyillarini amalga tatbiq, qilgan holda yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi. O'quv materialining sxemalar va shartli belgilardan iborat modellari (tayanch signallar konspektlari) asosida ta'limni intensivlashtirish texnologiyasi (V. F. Shatalov, Donetsk shahri).

Tayanch signallar konspektlari ko'rgazmali sxemalardan iborat bo'lib, ularda uzlashtirilishi lozim bulgan axborot birliklari aks ettiriladi, ular orasidagi turli borliqliklar ko'rsatiladi hamda mavhum (abstrakt) materialni yaqqollashtiruvchi misollar, tajribalarni eslatish uchun belgilar va maqsadlarning ahamiyatligi bo'yicha tasnifi turli shartli belgilar bilan beriladi. Tayanch signallar konspektlari bilan ishlashda qator o'ziga xos usullar va metodik yechimlar qo'llaniladi.

„Vakolatli ta'lim“ texnologiyasi. Bu texnologiya 1995-yilda A.Q.Sh. da „Ayollar yetakchiligi“ deb nomlangan treninglardan boshlangan bo'lib, xalqaro ta'lim texnologiyasi sifatida 1997 yildan boshlab Ukrainada shakllanib, so'ngra Ozarbayjon, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Litva, Moldova, Tojikiston, Uzbekistonga tarkalgan. 2002-yilda Afg'oniston, Birma, Indoneziyada treninglar o'tkazilgan. Boshqa mamlakatlarda ham bu texnologiyani shakllantirish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Bu ta'lim texnologiyasini hozirda mutaxassislar shunday ta'riflaydilar: „Vakolatli ta'lim — genderlik adolati va zo'rvonliksiz munosabatlar asosidagi o'quv jarayoni bo'lib, bunda bevosita tajriba orqali ta'lim olish yo'li bilan guruhning o'z-o'zini tashkil kilish ko'nikmalarini hosil qilish

mumkin“. Vakolatlash pedagogikasi ta'lim dasturlarining boshqa turlari bilan ta'limga nisbatan umumiy yondashuvlarga ega. O'zaro faoliyatda ular bir-birini boyitadi va kuchaytiradi.

Vakolatlash ta'limini quyidagicha joriy qilish mumkin:

— rasmiy o'quv reja (ayrim o'quv fani, integratsiyalash tirilgan yondashuvlar yoki mavzular sifatida)


— rasmiylashtirilmagan o'quv reja (maktab tomonidan tashkil kilingan va rasmiy reja bilan bog'langan sinfdan yoki maktabdan tashqari ish);

— norasmiy o'quv reja (kutilmagan mashg'ulotlar tashkil qilish yoki alohida reja orqali joriy qilish).

Yuqorida o'rganilgan barcha ma'lumotlarga tayangan holda o'qitish jarayonini boshqarish texnologiyasi uchun zamon talablariga mos va o'ylangan maqsadlarga erishish quyidagi mexanizmlarni qo'llasak maqsadga muvofiq bo'lardi:

#### Adabiyotlar :

1. Musurmonov, R., Khimmataliev, D. O., Sultanova, D. A., qizi Tursunbaeva, Y. R., Khakimova, I. K., & Musurmonova, M. (2023). In the Conditions of New Uzbekistan the Main Issues of Science and Modern Education. Telematique, 7686-7694.



2. Prezidentining, O. R. (2018). Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3775-sonli Qarori.

3. Qizi, T. Y. R. (2021). Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati monitoringini takomillashtirish masalalari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 253-258.

4. Qizi, T. Y. R. (2021). TA'LIM PSIXOLOGIYASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 587-591.

5. Расулов, А. Н., & Наримонов, Ж. М. (2022). Педагогик таълим инновацион кластери шароитида "иктисодий билим асослари" фанини ўқитишнинг ташкилий ва педагогик шароитлари. *Academic research in educational sciences*, 3(12), 76-79.

#### РЕЗЮМЕ

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati monitoringini takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan chora tadbirlar yuzasidan fikrlar yuritilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются меры, направленные на совершенствование мониторинга качества образования в высших учебных заведениях и повышение качества образования.

#### SUMMARY

The article discusses measures aimed at improving the monitoring of the quality of education in higher education institutions and improving the quality of education.

